

**JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING ILMIY TADQIQOT OLIB
BORISH JARAYONINING KONTSEPTUAL ASOSI**

10.53885/edinres.2021.83.83.008

Madaminov Azimbek Egamberganovich,

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Мадаминов Азимбек Егамберганович

Научный сотрудник Ургенчского государственного университета

Madaminov Azimbek Egamberganovich

Urgench State University researcher

+99893-467-00-74; +99894-317-00-74

E-mail:madaminov.9290@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola jismoniy madaniyat sohasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishda amalga oshirilishi lozim bo'lagan mezonlarga bag'ishlangan bo'lib, unda talaba va uning ilmiy rahbari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, ta'lif, ilmiy tadqiqot, talaba, tarbiya, tizim.

Аннотация. Данная статья посвящена критериям, которым необходимо руководствоваться при организации научно-исследовательской работы студентов в области физической культуры, содержит рекомендации, которые должны выполняться студентом и его научным руководителем при проведении исследования.

Ключевые слова: физическая культура, образование, исследования, студент, воспитание, система.

Annotation. This article is devoted to the criteria that should be followed in the organization of research work of students in the field of physical culture, it contains recommendations that should be implemented by the student and his supervisor in the conduct of research.

Key words: physical culture, education, research, student, upbringing, system.

Mamlakatimizda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lif yo'naliishi balki boshqa ta'lif yo'naliishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi hamda pedagogik amaliyot) ishlarni amalga oshirishda talabalalar qator muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ilmiy ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning asosiy roli barcha oliy o'quv yurtlariga xos bo'lgan barqaror tendentsiyadir. Bilim, ko'nikma va malakalarning muhim tomoni voqealarni, faktlarni o'z vaqtida tahlil qilish, tushunish va baholash, kasbiy muammolarni nazariya va amaliyot birligi asosida hal qilish qobiliyati, birinchi navbatda, talabaning mustaqil ishlash jarayonida uning ilmiy faoliyat olib borish malakasi rivojlanadi. Zamonaviy ta'lif jarayonida jismoniy madaniyat mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi, bu esa, avvalo, ularning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda shakllanadi. Talabalarning bu turdag'i ishlariga so'nggi paytlarda pedagogik amaliyotda katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari muammosining nazariy asoslanmaganligi va o'quv jarayonining texnologik tomonini ta'minlanishi, shuningdek, uning samaradorligi pastligini qayd etishadi.

Tadqiqot ishlarida ishtirok etishda talabalarning pedagogik mahorati va bu jarayonga munosabati kabi omilni aniqlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Umuman olganda,

talabalarning ilmiy va pedagogik munosabatiga murojaat qilish shuni ko'rsatadiki, haqiqiy ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat talabalarning faqat to'rtdan bir qismini qamrab oladi.

Oliy jismoniy tarbiya tizimi bo'lajak mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ilg'or ta'sir ko'rsatadigan qilib ishlab chiqilgan, jamiyat, ilm-fan, madaniyatning hozirgi holati bilan zamonaviy jamiyatga moslashishga imkon beradi. U mustaqil professional tadqiqot faoliyatiga kirganda paydo bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining uslublari va usullarini barqaror egallashning asosiy tomoni, ayniqsa, kasbiy va shaxsiy faoliyatni belgilashda o'z-o'zini bilish hamda egallagan bilim darajalarini anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya bo'yicha talabalar tomonidan o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi uch o'lchovda aniq ko'rindi:

1. O'z-o'zini rivojlantirish, shu jumladan kasbiy: sub'ektivlik shaxsning shaxsiyatini, individualligini va universalligini rivojlantirish uchun asos yaratadi. Busiz, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining o'zi yaxlitligini, murakkabligini va asosiy mohiyatini yo'qotadi.

2. O'quv jarayonini bir maromda kechishi: uning faoliyati, o'qituvchi bilan o'zaro munosabati va o'quv jarayonini konvertatsiyasi.

3. Talabalar o'quv jarayonida ustuvor sub'ektivlikni jumladan, motivatsiya va ularning kelajakda professional ilmiy tadqiqot bilan faol shug'ullanishi.

Biroq, jismoniy madaniyat sohasidagi zamonaviy ta'lim amaliyoti ijtimoiy va shaxsiy muammolarni to'liq oqlay olmaydi. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining aksariyati madaniy rivojlanish sohasida to'plangan va ichki qadriyatlarning faol tashuvchisi va tarjimoni sifatida yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Bunday muammoni bartaraf etishda talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha olingen bilim va ko'nikmalarini hamda amaliy ko'nikmalarni ta'lim va kasbiy mehnat madaniyatiga sezilarli darajada cheklaydi va umumiy gumanitar va shaxsiy rivojlanishni pasaytiradi.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini ilmiy tadqiqot faoliyatini shakllantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlari e'tibor qaratishni nazarda tutadi:

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyatlarini yaxlit nazariy-uslubiy hodisa sifatida ko'rib chiqish, uning muhim va tarkibiy qismlarini aniqlash, birgalikda talabalarni keyingi tadqiqot faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot faoliyati qobiliyatlarini kontseptsiyasini yaratish;

- jismoniy tarbiya tizimida talabalarni tadqiqot faoliyati qobiliyatlarini amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

- jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va uni joriy etish samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan va o'rganilayotgan muammoning dolzarbligini rivojlantirishni belgilaydi bu esa jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish qobiliyatini shakllantirishning kontseptual namoyishi sifatida e'tirof etish o'ziga xos o'rinni tutadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Зиёмуҳаммадов Б. Абдуллаева Ш. Педагогика. -Т.: Ўқитувчи, 2000. -126 б.
2. Слобадчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. - 2005. -№2. - 4-12 с.
3. Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. // Ж. Педагогика. -2001. -№5. -45-50 с.
4. Подласый.И.П. Педагогика . 2-х томах.-М.: Владос, 2004.-572 с.